

Rahmatova Mehriniso Musinovna

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro Davlat Universiteti

Рахматова Мехринисо Мусиновна

Преподаватель кафедры английского языка и литературы

Бухарский Государственный Университет

Rakhmatova M. M.

Teacher at the department of English language and literature

Bukhara State University

INGLIZ TILLINI O'RGATISHDA "AYLANMA" DARSLARNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ "FLIP" УРОКОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

SIGNIFICANCE OF FLIPPED LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatish jarayonida aylanma kommunikativ yondashuvdan foydalanish va tabiiy kommunikatsiyani shakllantirish tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: muloqot, mooc, moodle, blog darslik.

Аннотация. В данной статье проанализировано значение и формирование естественной коммуникации в «Flip» уроках в обучении английского языка.

Ключевые слова: коммуникация, mooc, moodle, blog, учебник.

Summary. The significance of «Flip» learning in teaching English language and in the formation of natural communication in EFL classrooms.

Key words: communication, mooc, moodle, blogging, textbook.

O'zbekiston chet tillarni o'qitish tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrda 1875- sonly Qarori "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [4.], e'lon qilinganligi munosabati bilan chet tillarni o'qitish tizimida olib borilayotgan qator ahamiyatli yangiliklar va o'zgarishlar biz mutaxassislariga ulkan ishonch va mas'uliyatni yuklamoqda.

Jamiyatimizda turli yoshdagi insonlar orasida "Qanday qilsa ingliz tilida muloqot qilishni tez va samarali o'rganish mumkin?" va til o'rganishda yosh ahamiyati qanday?", "Ta'lim muassasalarida til o'rganish samaraliroqmi yoki tili o'rganilayotgan mamlakatdami?" kabi savollar tez-tez uchrayotgan bo'lsa chet tillarni o'rgatuvchi mutaxassislar orasida "45–80 daqiqadan qanday samarali foydalanish mumkin? Birta sifxonada har xil til ko'nikmalariga ega talabalarni qanday unumli qamray olish mumkin? Talabalar erishayotgan natijalarni qanday ishonchli baholash mumkin kabi savollardan tashqari Talaba bo'sh vaqtini qanday ijtimoiy saytlarda unumli yoki unumsiz foydalanmoqda? Bu ijtimoiylashuvda til o'rganuvchining roli qan-

day? Bugun o'z bilim malakamni qanchalik ko'rsata oldim emas balki talabaning bilim olishida qanchalik ko'maklasha oldim?" kabi savollar hamda til o'rganish uchun sinf xonasida ko'proq muloqot uchun vaqtning muammoliligi va talabaning sinfdan tashqari vaqtini nazorat qilish oson emasligi biz mutaxassislarini izlanishga, usul va uslubi-mizni charxlashga undamoqda.

Ingliz tili o'rganilayotgan sinfxonalarda paydo bo'layotgan xuddi shunday savollar va yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar ta'sirida til o'rgatishning zamonaviy kommunikativ metodlarini tahlil qilib, dunyo tajribasiga tayanib, hamda O'zbekiston respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarorlari, davlat ta'lim standarti, pedagogikaga oid tamoyillar va tushunchalarni o'rganib chet tillarni o'rgatishda mening tajribamda samarali natija bergan pedagogik konsepsiyani taqdim qilmoqchiman.

Mazkur konsepsiya negizida ingliz tilini o'rganuvchilarning chet tillarida erkin muloqotga kira olishi, samarali natijaga erishib kerakli kommunikativ va lingvistik

kompetensiyalarni shakllantirishni osonlashtirish, shu bilan birga 80 minutlik darsdan unumli va ingliz tilida kommunikatsiyaga urg'u berib foydalanish uchun ahamiyatli bo'lgan "Aylanma" kommunikativ yondashuv g'oyalari taklif etiladi.

"Aylanma" deb nomlangan bunday kommunikativ yondashuv o'ziga xos uslubga ega bo'lib, bunday yondashuvda an'anaviy til o'rgatishda ommaviy ravishda qo'llaniladigan **talabani sinfxonadagi vazifasi sinfdan tashqariga, uyga berilgan topshiriqlar esa sinfxonasiga ko'chadi va shu sababli bu yondashuv "aylanma" deb nom oldi.**

Bu yondashuv quyidagi pedagogic jarayonlarni qo'llab quvvatlaydi:

Ilg'or pedagogic texnologiyaning bosh tamoyili – o'qitish emas o'qishga o'rgatish;


Ta'lim bu–bilim, ko'nikma va malakani hosil qilish faoliyati

Pedagog – yetaklovchi va boshqaruvchidir.

Kommunikativlik – jamoaga qo'shib keta olish, muloqotga kirishish.

Uyga vazifa – bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash.

Quyida keltirilgan jadvalda an'anaviy kommunikativ metod va aylanma kommunikativ metod qiyoslangan:



Yuqorida ko'rsatilgan Aylanma kommunikativ yondashuv sinfxonadagi to'g'ridan to'g'ri instruksiyalar orqali bir guruh bo'lib o'rganishdan individual o'rganishga almashadi. Talaba tayyorlanishi kerak bo'lgan yangi mavzuga doir nazariyani sinfdan tashqarida o'ziga mos metod orqali: video yoki prezentatsiyani tomosha qilib yoki bajarib, yozib yoki o'qib, so'rab yoki taqdimot qilib o'rganadi va sinfxonaga yangi mavzuga doir nazariy bilimlari bilan kirib kelib, sinfxonada bu bilimni amaliyot bilan mustahkamlaydi. Bunday yondashuv orqali sinfxonasidagi til o'rganish muhitini o'z-o'zidan dinamik, interaktiv va munozarali o'rganish muhitiga aylantirish mumkin. O'qituvchi

vchi roli esa o'rganilgan tushuncha va konseptlarning amalda va muloqotda qo'llanishini nazorat qilish, hamda talaba erishgan natijalarni baholashdan iboratdir.

Bu taklif qilinayotgan konsepsiya an'anaviy til o'rganish yondashuvida seminar mashg'ulotlarning tartibiga qisman o'xshab ketadi chunki nazariy bilimlar ma'ruza darslarida olinib seminar mashg'ulotlarida mustahkamlanadi. Aylanma kommunikativ yondashuvda ma'ruzalar uyda, sinfdan tashqarida o'rganilib, sinfxonasida muhokama qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki ma'ruzalar kommunikativ interaktiv tarzda o'tadi.

Bunday yondashuvdan turli o'qituvchilar turlicha foydalanib kelayotgan bo'lishi mumkin lekin biz bu konsepsiya orqali bu yondashuvning to'g'ri olib borishini ta'riflab va asoslab bermoqchimiz.

Aylanma kommunikativ metod 4 asosiy tartibga bo'ysunadi:

1. Muhit: O'qituvchi tomonidan o'rganish muhitining turli xilligini ta'minlash.
2. Tanlov: Talabani o'z qobiliyati va ko'nikmalariga mos o'rganish variantni tanlashi.
3. Mazmun: O'rganiladigan bilim yoki dars mazmuni va kompetensiyaga urg'u.
4. Baholash: O'qituvchi nazorati, qo'llab quvvatlash va baholash.

1. Muhit: O'qituvchi tomonidan o'rganish muhitining turli xilligini ta'minlash. Birinchi tartibda muhit tanlanadi deganda til o'rganuvchilar uchun turli o'rganish muhiti va joylar taklif etiladi:

– **darsliklar muhiti; virtual muhit; masofaviy o'rganish muhiti; ilmiy muhit.**

Talaba berilgan topshiriq muhitiga ko'ra yangi mavzu mazmunini qachon, qayerda o'rganishni o'zi belgilaydi. Ya'ni quyidagi joylar tanlanishi mumkin:

O'quv darsliklar va maqolalar, moodle; mooc; virtual 3d raqamli formatlar; webinar va ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar.

O'qituvchi roli:

– Muhit joyi va vaqt ramkalarini tashkillashtirish: google drive, mooc, moodle va bloglarda talabalar kommunikatsiyasini va bajaralayotgan ishni nazorat qilish. Bunday dasturiy ta'minotlarda albatta har bir talaba ro'yxatga olinadi va berilgan topshirig'larni bajarishi kerak bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonni nazorat qilib turadi.

2. Bilim olish muhiti tanlov va individual yondashuvni hosil qilish: Talabani o'z qobiliyati va ko'nikmalariga mos o'rganish variantni tanlashi va sinfdan tashqarida o'zi xohlagan tartibda o'rganishi nazarda tutiladi. Ya'ni an'anaviy yondashuvda o'qituvchi bosh rolda va o'qituvchi asosiy axborot manbasi hisoblansa, aylanma yondashuvda axborot turli manbalardan olinadi sinfxonasida bahs munozaralar, tanqidiy fikrlash, kognitiv jarayonning

faollashuvi natijasida sinfdan tashqarida olingan axborot bilimiga aylanadi va ko'nikmani hosil qiladi.

O'qituvchi roli:

- O'qituvchi endi kuchli pedagog va axborotni tanlab uning to'g'riligini tasdiqlovchi ekspert vazifasini o'ta olishi kerak.
- o'qituvchi asosiy axborot beruvchi emas, balki u topshiriqlar birin ketinligini ta'minlovchi osondan murakkab tomon yetaklab boruvchi va tafakkur charxlovchi instructor ekspert vazifasini o'taydi.

3. Mazmun: O'rganiladigan bilim yoki dars mazmuni va kompetensiyani shakllantirish. Bu jarayon bilim oluvchilarning konseptual tushunchasini yoki darsning asosiy mazmunini tushunishini va keyingi darslarning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi. Har bir mazmunga mos topshiriqda "talaba nimani bilib oldi?" emas balki "talabaning o'zi nimani bajara oldi?" yoki dars maqsadiga mos kompetensiyaga ega bo'ldimi? degan savol qo'yiladi. Talaba nimani va qanday o'rganishni o'zi individual tanlar ekan virtual nazorat o'qituvchi qo'lida bo'ladi. **Ya'ni moodle sistemasidan foydalanilganligi, mooc orqali masofaviy kurslarni o'taganligi, blogdagi savollarga o'z munosabatini bildirib turganligi, google drive orqali o'qituvchi bergan topshiriqlar bajarilayotganligi nazorati joriy baholashni osonlashtiradi.** Sinfxonada esa talaba uchun ko'proq muloqot qilishga vaqt tejaladi bahs munozaralarda mazmun doirasida tanqidiy fikrlashi o'sadi va bilim hamda malakani hodil qiladi. Bundan tashqari dars mazmuni turli manbalardan olinganligi sinfxonada bilim olish jarayonini sermazmunlik bilan boyitadi.

O'qituvchi roli:

- o'rganilishi kerak bo'lgan tushuncha, konsept va terminlar o'qituvchi tomonidan prioritet sifatida belgilanadi.
- kerakli video va audio yozuvlar, ppt prezentatsiyalar o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi va tanlanadi;
- dars mazmunini mustaqil ravishda o'rganish qulayliklari va etaplar talabalar uchun ishlab chiqiladi;
- o'rganilayotgan mazmun talabaning ota-onalari uchun ham shaffofligi ta'minlanadi.

4. Baholash: O'qituvchi nazorati, qo'llab quvvatlash va baholash.

Malakali pedagog roli shu o'rinda juda muhimdir. An'anaviy kommunikativ yondashuvda o'qituvchining o'zi axborot manbasi bo'lganligi sabali, oz bilganlarini talabalarga etqazadi. Aylanma kommunikativ yondashuvda esa talabalar o'z o'rganganlarini o'qituvchi va auditoriya bilan baham ko'rishadi. Bunday paytlarda ba'zan o'qitu-

vchi ham talabadan o'rganish holati kuzatiladi. Shunday holatlarin yaxshiroq qamrab olish uchun va to'g'ri baholash uchun ham o'qituvchidan malaka, bilim va keng dunyo qarash talab qilinadi.

O'qituvchi roli:

- Virtual nazorat ishlari har doim olib boriladi.
- sinfxonadagi bahs munozaralarda talabaning kommunikativ va lingvistik, pragmatic kompetensiyalarni egallab borishi kuzatib borilib, talaba qo'llab quvvatlanadi va baholanadi.
- individual, kichik guruhlarda va juft bo'lib ishlayotgan talabalar uchun o'qituvchi kerakli paytda hozir bo'lib ular ishining mahsuliga o'z bahosini beradi va to'g'ri yo'naltiradi.
- boshqa mutaxasis o'qituvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlab borib, o'z malakasi v atajribasini uzviy ravishda yaxshilab boorish masu'liyaini zimmasiga oladi.

Xulosa.

Aylanma kommunikativ yondashuvda ma'ruza uyda o'rganilib, tahlillar o'qituvchi va auditoriya bilan birga sinfxonada bajariladi. Uyda yoki sinfdan tashqarida o'rganilishi kerak bo'lgan ma'ruzani talaba videoyozuv yoki ppt prezentatsiyani xohlagancha tomosha qilishi, o'rtoqlari bilan muhokamada o'rganishi va tushunchaga ega bo'lishi mumkin. Talaba o'z bilim olish jarayonini o'z qo'lga oladi, ya'ni bir o'qituvchidan emas balki turli manbalardan axborotni oladi va bilimni shakllantiradi.

Chet tilida so'zlashuv nutqni rivojlantirish uchun vaqt samarali sarflanadi. Sinfxonada o'qituvchi ko'proq talabaga vaqt ajrata oladi. O'qituvchi ingliz tilida instructor muloqotchi, talaba va auditoriya esa asosiy muloqotni olib boruvchi hisoblanadi. Sinfxonada talaba passiv bilim oluvchi emas balki aktiv qatnashuvchi vazifasida bo'ladi. Sinfdan tashqarida o'rganilgan mazmun doirasida bahs munozaralar va talabaning tanqidiy savollari tabiiy holda shakllanadi.

Ingliz tili o'rganiladigan auditoriyalarda odatda har xil til bilish darajalari va til ko'nikmalariga ega talabalar bo'lganligi sababli o'qituvchi uchun bir xil mazmunni talqin qilish o'ziga xos qiyinchiliklarga olib kelar edi, ya'ni til bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalarning sinfxonada zerikishi, yoki til bilish darajasi past talabalarning mavzuni tushunmasligi kabi muammolarni hech qaysi til o'qituvchisi inkor eta olmaydi. Aylanma yondashuvda esa har bir talabaga individual yondashiladi va sinfxonalarga oldindan mazmunni o'rganib tayyor bo'lib kelgan talabalarda tabiiy holda o'z bilimiga bo'lgan ishonch paydo bo'lib, sinfxonada tabiiy kommunikatsiya shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. — T.: O'zbekiston, 2001.
2. Faberman B. I., Musina R.G, F. A. Djumabaeva Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. — T.: Fan, 2002
3. www.ziyounet.uz
4. www.lex.uz